

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

## BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI

Ahmedov Alisher Hasan o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

[ahmedovalisher194@gmail.com](mailto:ahmedovalisher194@gmail.com)

**Kalit so‘zlar:** Multimedia, grafika, geometriya, idrok etish, qiziqish, motivatsiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlamg‘ich sinf matematika darslarida foydalanish uchun kerak bo‘ladigan multimedia vositalari haqida ma’lumot berilgan. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida foydalanish uchun juda muhum bo‘lgan multimedia vositalarining samarasi, foydalanish yo‘llari va turlari haqida ma’lumotlar keltrilgan.

## ЭФФЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Ахмедов Алишер Хасан угли

Денауский институт предпринимательства и педагогики ул. Шарофа Рашидова, 360, Денов 190507 Узбекистан([ahmedovalisher194@gmail.com](mailto:ahmedovalisher194@gmail.com))

**Ключевые слова:** Мультимедиа, графика, геометрия, восприятие, интерес, мотивация.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о мультимедийных инструментах, необходимых для использования на уроках начальной математики. Приводятся сведения об эффективности, способах использования и видах мультимедийных средств, которые очень важны для использования на уроках математики в начальной школе.

## THE EFFECT OF USING MODERN MULTIMEDIA IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

**Key words:** Multimedia, graphics, geometry, perception, interest, motivation.

**Abstract:** This article provides information about the multimedia tools needed for use in elementary mathematics classes. Information about the effectiveness, ways

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

of use and types of multimedia tools, which are very important for use in elementary school mathematics lessons, is given.

## KIRISH

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish haqida gap ketganda, o'qituvchilar o'z o'quvchilarini o'quv jarayoniga jalb qilish uchun doimo innovatsion vositalar va resurslarni izlaydilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darslarida bolaning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, dars samaradorligini yaxshilash uchun yangi, innovatsion vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi multimedia vositalari matematika darslarini yaxshilash va mavzuni o'quvchilar uchun qulayroq va qiziqarli qilish uchun mashhur tanlovga aylandi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantrish, dars samaradorligini oshirish uchun juda muhum bo'lgan zamonaviy multimedia vositalari haqida ma'lumotlar beramiz. Ushbu multimedia vositalari dars samarodorligini oshirish o'zining kata imkoniyatlari bilan sifatlanadi. Xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarda hisoblash tushunchalari bilan birgalikda geometrik tushunchalarni shakllantirshda ushbu vositalarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

**Mavzuning dolzarbliji.** Hozirgi zamon talabiga ko'ra o'qituvchilar darslarni qiziqarli va o'quvchining bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun albatta zamonoviy ta'lif vositalarini darslarda muntazam qo'llab borishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son<sup>1</sup> Farmonlarida umumta'lif tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'lif sifatini oshirish, ta'lif oluvchilarining bilimga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish, o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaratilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirish ko'rsatib o'tilgan.

## Asosiy qism

<sup>1</sup> <https://www.lex.uz/uz/>

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5**

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayoniga joriy etilgandan so‘ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta’lim vositalari ta’lim muassasalari tomonidan keng qo’llaniladi. Ushbu o‘rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o‘rganish imkonini beradi. Multimediali texnologiya bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimedianing eng muhim hususiyati interfaollik-axborot muhitida ishslash jarayonida foydalanuvchiga ta’sir o‘tkaza olishga qodirlik hisoblanadi.<sup>2</sup>

Multimedia o‘zi nima? Multimedia (lotincha — ko‘p va — vositachi bo‘lmoq) — kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi.<sup>3</sup>

Multimediaga berilgan yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinadiki multimedia ko‘p vositalik demakdir. Ko‘p vositalik esa bir nechta (matn, grafika, tovush , rasm video va animarsiya)vositalar bilan bir vaqtda ishslash imkonini beradi. Multimedia bolaning bilim olishi uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlar jamlanmasidir. Ta’lim olishda eng muhum narsa bu ma’lumotni eslab qolish va xotirada uzoq vaqt saqlanishidir.

Multimedia vositalari asosida o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan ma’lumot (misol, masala, geometrik tushuncha) haqida chuqurroq va tushunarliroq ma’lumot olish imkoni mavjud;
- Multimedia vositalari qimatli vaqtni tejash imkonini beradi;
- O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
- O‘quvchilarda kriativlik qobiliyatlarini shakllantradi;
- Olingan bilimlar o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi;
- Darsning samaradorkigini va unimdonligini oshiradi;
- Ta’lim olishning yangi usullari bilan hamnafas qiladi.

Multimedia vositalaridan foydalanish ayniqsa matematika darslarida o‘z imkoniyatlarini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Nimagaki, hozirgi zamон 4K modeliga asoslangan yangi darslikdagi misol va masalalar o‘quvchining kriativlilagini

<sup>2</sup> Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich, Eraliev Yo‘ldoshali, Qosimova Gulzoda “TA’LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”, “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali, 2022-yil noyabr.

<sup>3</sup> <https://uz.wikipedia.org/>

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

shakllantrishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarga ushu misol va masalalarni o'quvchilarga tushuntirish bir muncha qiyinchilik tug'dirmoqda. Bunday vaziyatda albatta ta'lim vositalari hususan multimedia vositalari yordamga keladi.

Multimedia vositalari bir nechta turlsiga bo'linadi:

- Tovushni kiritish va chiqarish qurulmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalar);
- Video va grafik ma'lumotlarni kiritish qurilmalari (raqamli video kamera, raqamli foto kamera, TV-tyuner, modem);
- Ma'lumotlarni namoyish etish raqamli tasvir va videoaxborotlarni foydalanuvchiga namoyish etish qurilmalari (monitor, proyektor, video karta).

Multimedia vositalari quyidagi ko'rinishdagi ma'lumotni iste'molchiga (o'quvchiga) yetkazadi:

Matn ko'rinishida: Matematika darslarida eng muhum ma'lumotlardan biri bu matndir. Matn misol yoki masalani o'quvchiga aniq qilib yetkazishdagi barhayot vositadir. O'quvchi berilgan misol va masalani o'qish orqali boshqalarga halal bermasdan mazmunini anglash imkonini beradi.

Garfik ko'rinishda: Rasmlar, fotosuratlar, tasvirlar va boshqa san'at asarlari grafik deb ataladi. Garfika multedianing ajralmas va muhum qismidir. Garfikadan ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantrishda foydalanish juda yaxshi natija beradi. O'quvchilarga geometrik tushunchalar (burchak, uchburchak, to'rtburchak, piromida va h.)larni grafik ko'rinishda taqdim qilinsa o'quvchilar bu ma'lumotlarni yaxshi anglab oladi.

Animatsiya ko'rinishida: Animatsiya multedianing eng dinamik shakllaridan biridir. Animatsiya chizmalar, obektlar, odamlar va h.klarning harakatsiz tasvirlarini yozib olish orqali yaratiladi. Animatsiyadan geometriyaga oid, harakatga oid misol va masalalarni bolaga yetkazishda foydalangan ma'qul.

Audio ko'rinishida: audio- bu nutq, musiqa va boshqa turdagи tovushlar. Ovoz elementi oddiy multimedia muhitini yaxshilash uchun ishlataladi. Ovozli ma'lumot ham o'quvchilarga o'zgacha ta'sir qiladi. Yangi darsliklarda audio matn bilan ishlashga oid topshiriqlar ham anchani tashkil qiladi. Bu o'quvchini mustaqil ravishda ishlashga undaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Video ko‘rinishida: Video yozuv bilan tasvirlar ketma-ketligini ko‘rsatadi. Vidio o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni mukammal darajada yetkazishda eng asosiy vosita snaladi. Chunki vidioda ham ovoz, ham atsvir, ham animatsiya tasvirlanga bo‘lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/rus/docs/-3893445>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprel, PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. –T.:2019. manba: <https://lex.uz/docs/-4312785>

3. Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich, Eraliyev Yo‘ldoshali, Qosimova Gulzoda “TA’LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”, “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali, 2022-yil noyabr.

4. Suyarov Akram Musayevich, dotsent, PhD “Ta’lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanishning imkonoyatlari «Новости образования: исследование в XXI веке», № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» февраль, 2023 г

5. Ta’limda axborot texnologiyalari o‘quv qo’llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy

nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T.: TDPU, 2020 yil

6. <https://uz.wikipedia.org/>

7. <https://www.lex.uz/uz/>